M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonova	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
<i>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
<i>Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi</i>	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</i>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services	932
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
<i>Chakkanov Fakhriddin Xusanovich</i>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
<i>Irgashev Shokhruxh Khasanovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
<i>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</i>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</i>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<i>Almatova Umida Islomovna</i>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<i>Nosirova Shohista Elmurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
<i>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafruz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari.....	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortoijiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari.....	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiev Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekturodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekturodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	

O'QUVCHILARNI TAYANCH HAYOTIY KOMPETENSIYALAR ORQALI IQTISODIY BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH

Adizova Nigora Baxtiyorovna

BuxDPI professori, p.f.d.(DSc)

Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna

BuxDPI magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ularni iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirishning muhim ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda iqtisodiy bilimlar asosida o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalari bosqichma-bosqich shakllanib borishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan hamda ushbu jarayonning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, tayanch hayotiy kompetensiya, kompetentlilik, xususiy kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka, kreativlik, kommunikativlik.

Abstract: This article highlights the importance of equipping students with economic knowledge in the process of developing basic life competencies. It substantiates the idea that economic knowledge contributes to the gradual formation of life competencies and analyzes its impact on improving the effectiveness of the educational process.

Key words: competence, basic life competencies, competency, personal competence, knowledge, skills, abilities, creativity, communicative skills.

Аннотация: В статье раскрывается значимость формирования у обучающихся экономических знаний в процессе развития базовых жизненных компетенций. Обосновано, что экономические знания способствуют поэтапному формированию жизненных компетенций, а также проанализировано их влияние на повышение эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: компетенция, базовые жизненные компетенции, компетентность, личностная компетенция, знания, умения, навыки, креативность, коммуникативность.

KIRISH

O'quvchilarning iqtisodiy bilimlar asosida hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishi tayanch kompetensiyalarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonida ushbu masalaning yechimiga alohida e'tibor qaratish talab etilmoqda. Ayniqsa, pedagoglar, psixologlar, matematika o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassislar, boshlang'ich ta'lim pedagogikasi namoyandalari, sotsiologlar hamda iqtisodchilar mazkur masalaga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Shunga qaramay, o'quvchilarda iqtisodiy bilimdonlikni rivojlantirish asosida hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni yetarli darajada jadal kechmayapti.

O'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni boyitish asosida hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish ehtiyoji, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida, xususan, matematika darslarida keng imkoniyatlar mavjudligi bilan izohlanadi. Shu bois hayotiy kompetensiyalar tarkibida iqtisodiy bilimlarning ifodalanishiga alohida e'tibor qaratish zaruriyati mavjud.

Biz matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi ustida fikr yuritar ekanmiz, topshiriqlar mazmunida iqtisodiy bilimlarni taqdim etishga alohida e'tibor qaratdik.

Ma'lumki, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyot ijtimoiy hayotning asosi hisoblanadi. O'quvchilarning aksariyati kelajakda tadbirkor, iqtisodchi, bank xodimi, boshqaruvchi, marketolog kabi kasblarni tanlashga intilmoqdalar. Ushbu kasblarning asosini matematik bilimlar tashkil etadi. Bu esa matematikaga oid bilimlar bilan bir qatorda hayotiy kompetensiyalarni egallashni ham talab qiladi. Chunki har bir shaxs o'z hayoti va kasbiy faoliyati davomida iqtisodga oid muammolarga duch keladi. Shuning uchun ham o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan boshlab iqtisodiy bilimlar hamda zarur ijtimoiy



kompetensiyalar bilan qurollantirish talab etiladi. Shu munosabat bilan maktab ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda hayotiy ijtimoiy va iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Ana shundagina o'quvchilar turli hayotiy vaziyatlarda duch kelgan muammolarni mustaqil hal etish layoqatiga ega bo'ladilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mutaxassislar kompetentli yondashuv doirasida ikki asosiy tushunchani alohida ajratib ko'rsatadilar. Ular – kompetensiya va kompetentlilik tushunchalaridir. Pedagogik nazariyada ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyati hamda ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, kompetensiyalarning shakllanishi va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Biroq olimlar orasida kompetensiyalarning tavsifiga doir yagona yondashuv mavjud emas. Bir qator mutaxassislar "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalari o'rtasida aniq chegara mavjud emas, deb hisoblaydilar. Bunday qarashni ilgari surgan olimlar qatoriga V.S. Lednev, N.D. Nikandrov hamda M.V. Rijakovlarni kiritish mumkin. Aksariyat mutaxassislar esa ushbu tushunchalar o'rtasidagi farqli jihatlarini alohida ta'kidlab o'tganlar.

A.V. Xutorskoy o'z tadqiqotlarida mazkur tushunchalar o'rtasidagi farqlarni aniq ajratib ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, kompetensiya ta'limiy tayyorgarlikka qo'yiladigan ijtimoiy talab sifatida baholanadi. Kompetentlilik esa muayyan kompetensiyani o'zlashtirish va egallash jarayonini ifodalovchi faoliyat bo'lib, u faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatni mujassamlashtiradi. A.V. Xutorskoyning fikriga ko'ra, kompetentlilik shaxsning sifati hisoblanadi va insonning muayyan kompetensiyani egallashini taqozo etadi. Shu tariqa, kompetensiya bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va faoliyat usullari majmui sifatida qaralib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismini tashkil etadi. Kompetensiya muayyan narsa va jarayonlarga nisbatan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lib, insonning muayyan sohada sifatli faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

I.A. Zimnyaya kompetensiyani muayyan ichki potensial, yangidan shakllangan yashirin ruhiy holat sifatida talqin etadi. U kompetentlilik doirasiga bilimlar, tasavvurlar hamda algoritmlarni kiritib, ularning faoliyat jarayonida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda iqtisodiy bilimlar, tushunchalar, atamalar hamda iqtisodga oid dastlabki bilimlarni shakllantirishlari, ularni asosiy qonuniyatlar bilan tanishtirishlari lozim. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarda oila budjetining tarkibi, pulning mohiyati, buyumlar va mahsulotlarning narxi hamda uning nimaga bog'liqligi, pul mablag'laridan oqilona foydalanish haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilishdan iboratdir.

Shu narsa ayonki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda shaxsiy insoniy fazilatlarining shakllanish jarayoni boshlanadi. Mazkur davrda bilish jarayonlari jadal rivojlanadi. Jumladan, idrok, xotira, tafakkur, nutq, diqqat va tasavvur kabi psixik jarayonlar faollashadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun iqtisodga oid bilimlarni idrok etish va o'zlashtirish nisbatan oson kechadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hamda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish muayyan darajada iqtisodiy bilimlar yordamida amalga oshiriladi. Matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hamda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik ishlar tizimli, bosqichma-bosqich va turli vositalar orqali tashkil etilishi zarur. Shu bilan bir qatorda, sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar ham o'quvchilarda tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur pedagogik jarayonlarda, ayniqsa, kommunikativ, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, axborotlar bilan ishlash, ijtimoiy-emotsional hamda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Chunki matematika ta'limining asosiy vazifasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafaqat fanga oid bilimlar va dastlabki hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, balki ularning aqliy rivojlanishi, matematik amallarni bajarish jarayonida fikriy operatsiyalarni amalga oshirish usullarini egallashlariga ko'maklashishdan ham iborat. Natijada fikrlash sifati ortib, jamiyat hayotida shaxsning to'laqonli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan hayotiy kompetensiyalar ham shakllanadi. Chunki bugungi kunda o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni barvaqt shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bormoqda. Ushbu bilimlar ularning keyingi ta'lim bosqichlarini davom ettirishlari uchun fundamental asos bo'lib xizmat qilishi bilan bir qatorda, zarur hayotiy kompetensiyalarning shakllanishi uchun ham muhim asos hisoblanadi. Mazkur jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarining muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv muhim o'rin egallaydi. Bunda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar bilan bir qatorda fanga oid kompetensiyalarni samarali shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda tayanch hamda fanga oid kompetensiyalarni hosil qilish jarayonida ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhim hisoblanadi.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, tayanch va fanga oid kompetensiyalar sohasidagi bo'shliqlarni o'qituvchi o'z vaqtida aniqlab, o'quv jarayoniga zarur tuzatishlar kiritishi lozim. Bunda pedagoglar o'quvchilarning intellektual potensialini muntazam rivojlantirishga, ularning o'zaro hamda o'qituvchi bilan samarali hamkorlik qilishiga yo'naltirilgan, o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va salomatlikka ziyon yetkazmaydigan pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari zarur.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritishi, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashining boyishi hamda o'z-o'zini anglash ko'nikmalarining rivojlanishiga ko'maklashadi. 7–10 yoshli o'quvchilarning moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishlari, go'zallik va nafosatni qadrlashlari, ulardan estetik zavq olishlari hamda o'zbek xalqining milliy urf-odatlarini tizimli tarzda o'zlashtirishlari alohida ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limning asosi shaxs kamoloti, uning barkamol shakllanishi va rivojlanishi haqidagi g'oyalarga tayanadi. Shu jihatdan taklif etilayotgan qarashlar va g'oyalar tizimi amaldagi fanlarga asoslangan boshlang'ich ta'limdan integrallashgan, shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'limning istiqbolliligini ifodalaydi. Jumladan, boshlang'ich sinf matematika darslarida miqdorlarni o'rgatish texnologiyalari yordamida o'quvchilarda kommunikativlik, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalari, shuningdek, bir qator tayanch va fanga oid kompetensiyalar shakllantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar yechishni tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, mustaqil ishlash hamda o'yin elementlaridan foydalanish kichik yoshdagi o'quvchilarda bilimlarni ongli va aniq o'zlashtirish, matematika faniga nisbatan qiziqish hosil qilish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limda miqdor tushunchalari tadrijiy tarzda har bir sinfda tizimli ravishda o'rgatib boriladi. O'quvchilar 1–2-sinflarda uzunlikni ifodalovchi o'lchov birliklari bilan tanishtiriladilar. Jumladan, ikki qadam, bir qarich kabi tushunchalar buyum o'lchami hamda masofa uzunligini anglatadi. Uzunlik o'lchov birliklari 1-sinf o'quvchilariga 2-chorak oxirida santimetr haqidagi ma'lumotdan boshlab taqdim etiladi. Santimetr moduli yordamida o'quvchilar bilan muayyan mashqlar ustida ishlash mumkin. Mazkur mashqlarning barchasi o'quvchilarning matematik tushunchalarni chuqur o'zlashtirishlari va fanga oid kompetensiyalarga ega bo'lishlariga ko'maklashadi. O'quvchilarda dastlab uzunlik haqida tasavvur hosil qilinadi. Buning uchun ularga aniq santimetrdan foydalanish zarurligi tushuntiriladi. Shundan keyin detsimetr, metr, millimetr hamda kilometr haqidagi ma'lumotlar beriladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida massa tushunchasini ifodalovchi o'lchov birliklari haqida ham tasavvur hosil qilinadi. Mazkur tushuncha doirasida o'quvchilar gramm, kilogramm va tonna kabi tushunchalarni o'zlashtiradilar.

O'quvchilarning kundalik faoliyatida vaqt tushunchasiga tez-tez duch kelishlari inobatga olingan holda, ushbu tushuncha haqida ham tasavvurlar shakllantiriladi. Ushbu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda o'quvchilar vaqt birliklari haqidagi aniq ma'lumotlarni o'zlashtiradilar. Natijada ularda vaqtga nisbatan munosabat kompetensiyasi shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlab bugun, erta, keyin, oldin, tun, kunduz, kecha tushunchalari haqida ma'lumot beriladi. Buning uchun o'qituvchi turli xil ko'rgazmalar, slaydlar, videoroliklar va rasmlardan foydalanishi mumkin. Shuningdek, vaqt o'lchov birliklariga yil, oy, hafta, sutka, soat, minut va sekundlar kirishi haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu tushunchalar O'qish, Ona tili, Atrofimizdagi olam, Odobnoma fanlari doirasida mustahkamlanadi.

Boshlang'ich sinf matematika darsliklarida miqdorlar ishtirok etgan misol va masalalar mavjud bo'lib, ularni yechish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, dunyoqarashi, ijodiy tashabbuskorligi, ziyraklik va sezgirlik layoqatlari tizimli tarzda rivojlanadi. Shu bilan birga, o'quvchilar miqdor o'lchov birliklaridan kundalik hayotda foydalanish kompetensiyasiga ham ega bo'ladilar. Bunday natijalarga erishish uchun o'qituvchi har bir darsda interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik vositalar va ikkilamchi didaktik materiallardan samarali foydalanishi lozim.

O'quvchilarga miqdorni o'rgatishga yo'naltirilgan masalalar asosan sonlar, miqdoriy munosabatlar hamda ularni ifodalovchi qisqa hayotiy voqealarni qamrab oladi. Bunday masalalar o'quvchilarning diqqatini o'rganilayotgan hodisalarga tezroq jalb etadi.

Kompetensiyaning shakllanishi uchun o'quvchida masalaning mohiyatini tushunish bilan bir qatorda uni aniq yechishga bo'lgan ichki ehtiyoj ham vujudga kelishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur kompetensiyalarni hosil qilish uchun matematik masalalarni yechishga bo'lgan qiziqish va intilishni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Miqdor o'lchoviga doir masalalarni yechish natijasida o'quvchilarda zarur kompetensiyalar bilan bir qatorda masala shartida berilgan sonlar bilan izlanayotgan sonlar o'rtasidagi bog'liqlikni mantiqiy idrok



etish layoqati ham shakllanadi. Mantiqiy fikrlashni izchil rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarida, avvalo, sodda masalalarni, keyinchalik esa muayyan ketma-ketlikda murakkab masalalarni yechish ko'nikmasini shakllantiradi.

Miqdorlarga doir masalalarni yechish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga masala shartlarini hayotiy misollar asosida tushuntirishi, ularni tahlil qilib berishi zarur.

Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda ta'limning maqsad va vazifalariga mos o'quv materiallari hamda ta'lim texnologiyalarini tanlash muhimdir. Shundagina o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalar samarali shakllanadi. Ushbu jarayonda o'qituvchidan kasbiy bilimlarini muntazam boyitib borish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni egallash talab etiladi. Bu talab, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatiga bevosita taalluqlidir. Chunki pedagogik texnologiya mazmunining asosi bo'lgan ta'lim subyektlarining o'zaro hamkorligi boshlang'ich sinflarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zero, o'zaro hamkorlik asosida o'qishga va ta'lim olishga endigina kirishayotgan, yangi muhitni kashf etayotgan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bu jarayonga nisbatan boshqalarga qaraganda sezgirroq munosabat bildiradilar. Shu sababli mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyatini zamonaviy pedagogik va axborot-informatsion texnologiyalar asosida modernizatsiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan yangi darsliklar, ular asosida tashkil etilayotgan darslar hamda o'qituvchilarning malaka oshirish kurslari mazmunida kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilmoqda. Boshlang'ich ta'lim jarayonida kompetensiyalarni jadal shakllantirish maqsadida multimediyaviy vositalardan keng foydalanilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga faol tatbiq etish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan davra suhbatlari, konferensiya va yig'inlarda chiqishlar tashkil etilmoqda, fikr-mulohazalar va munozaralar bayon etilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan multimediyaviy darslarda ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limiy maqsadlarga erishish kafolatlanadi.

Taniqli faylasuf Konfutsiyning ta'kidlashicha, inson nimani eshitsa – unutadi, nimani ko'rsa – xotirasida saqlaydi, nimani o'zi bajarsa – anglaydi. Shu sababli kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Buning uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini talab etadigan metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Ana shunday metodlardan biri – o'yin metodidir.

Didaktik o'yinlar asosan ta'lim jarayonini o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajalarini hisobga olgan holda samarali tashkil etishga, ularga bilim va ma'lumot berishni yengillashtirishga, ta'limda ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni o'quv materiallari bilan ortiqcha band qilib qo'ymaslik imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, dastur materiallarini o'zlashtirishda bir qator qulayliklar yuzaga keltiradi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning his-tuyg'ularini shakllantirishga, ayniqsa, ularning sezgi a'zolari – sezish, ko'rish, tinglash va boshqa faoliyatlarini faollashtirishga yordam beradi. Ular bolaning miyasini "mashq" qilishga, tafakkurini teranlashtirishga o'rgatadi. Natijada uning idroki, zehni, fahm-farosati, xotirasi, irodasi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va ehtiyoji mustahkamlanadi. Ziyrakligi, ixtiyoriy diqqati, topqirligi va tashabbuskorligi ortib boradi. O'quvchining iste'dodi hamda ijodiy qobiliyati namoyon bo'la boshlaydi, olgan bilimlarini o'z faoliyatida, mehnat va o'yin jarayonida sinab ko'rish imkoniyati shakllanadi. Shu bois o'quvchilarda kompetensiyalarni samarali shakllantirish uchun didaktik o'yinlardan keng foydalanish lozim.

Didaktik o'yinlarni dars jarayonida qo'llash ta'lim-tarbiya jarayoniga noan'anaviy yondashuvni ifodalab, an'anaviy usullardan bir qator jihatlari bilan farqlanadi. Ya'ni o'quv jarayonining qiziqarli o'yinlar asosida tashkil etilishi, o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlash, masalalarga guruh bo'lib yondashish orqali ularning faolligi va mantiqiy tafakkuri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Biroq ushbu jarayon texnologik jihatdan ta'minlangan bo'lishi lozim. Buning uchun o'yin mashg'ulotlarida qatnashuvchilar mavjud bilimlarini faol namoyon eta olishga odatlangan bo'lishlari zarur. Mazkur bilimlarni samarali namoyon etishda aynan o'yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar alohida ahamiyat kasb etadi. O'yin texnologiyalariga asoslangan darslarda qat'iy qoidalar va harakatlarning chegaralanish darajasi nisbatan kamroq bo'ladi. Bundan tashqari, o'yin jarayonida o'quvchilar jamoa bo'lib ishlashga, uyushqoqlikka, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga hamda mustaqil fikrlashga o'rganadilar. Natijada o'quvchilarda axloqiy sifatlar, tabiat va jamiyat haqidagi tushunchalar, insoniy fazilatlar shakllanadi. Ular o'yin qoidalariga rioya qilishga, intizomga amal etishga o'rganadilar, do'stlik, o'rtoqlik va inoqlik his-tuyg'ulari rivojlanadi hamda estetik didi yuksaladi, turli kasblarga bo'lgan qiziqishi ortadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU rizografi, 2014.
2. Abdullayeva B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tayyorgarligining mazmuni / Boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Jizzax, 2019-yil. – 6-b.
3. Ганиева, М.А., Жумаева, Ш.Х. (2018). Формирование методов групповой работы с учащимися общеобразовательных школ. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 149–151.
4. Maftuna, G. (2021). Effective ways to use TRIZ (The Theory of Inventive Problem Solving) in elementary school. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85–88.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.